

### **2018 yil yanvar-iyul**



Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-iyul oylarida 750,2 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 150,6 mln. AQSh dollarini va import 599,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi – 449,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,8 foizga oshib, qora va rangli metallar eksporti esa 2,1 martaga o'sdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 58,1 mln. AQSh dollarni tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 80,7 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirdorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-iyul oylarida 542,9 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 114,1 mln. AQSh dollarini va import 428,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.





45,2 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 8,0 foizlik natija bilan qayd etildi.


Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagи ijobiy ko'rsatkichi (47,8 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.

## Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 45,2 foizini mashina va asbob-uskunalar, 21,4 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 11,4 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 50,5 foizni va safarlar xizmati 28,7 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni




2018 yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi –449,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –81,2 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –367,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi  
quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**


	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiylajmga nisbatan, %</i>
<b>Eksport</b>	<b>150,6</b>	<b>119,0</b>	<b>100</b>
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	72,0	114,1	47,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	3,2	83,9	2,1
qora va rangli metallar	7,0	2,1m	4,6
mashina va asbob-uskunalar	12,0	180,8	8,0
xizmatlar	17,2	111,5	11,4
boshqalar	39,2	121,1	26,1
<b>Import</b>	<b>599,6</b>	<b>131,7</b>	<b>100</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	85,3	164,6	14,2
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	128,5	102,0	21,4
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	2,0	131,2	0,3
qora va rangli metallar	48,8	3,1m	8,1
mashina va asbob-uskunalar	271,1	128,9	45,2
xizmatlar	2,0	71,5	0,3
boshqalar	62,0	131,1	10,3

## 2018 yil yanvar-iyul oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 31,7 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 68,3 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.



## Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, (foizda)




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 58,1 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 135,5 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida

42,1 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 160,2 foizini tashkil qildi), 25,1 foizini mevalar (108,8 foizini), 26,2 foizini uzum (108,5 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 36,5 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (98,1 foizni) tashkil qildi.

Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 16,7 foiz), Rossiya (17,9 foiz), Vietnam (7,2 foiz), Xitoy (9,7 foiz), Turkiya (10,3 foiz), Belarus(5,3 foiz) va Eron (6,7 foiz) Islom Respublikalari hisoblanadi.



### **Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda**



## Tashqi savdo

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 38,6 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti tashkil qildi.



### Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti miqdori 70,5 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122,4 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 11,5 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78,1 foizni, sabzavotlar 38,6 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 156,7 foizni), uzum 16,4 ming tonnani (90,5 foizni), yer yong'oq 3,9 ming tonnani (22,2 martani), qovun va tarvuz 232,8 tonnani (2,9martaga) tashkil qildi.